



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 15-yanvar, № 10 (8902)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STRATEGIK HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan Abu-Dabi shahrida bo'lib turibdi.



ZAYED
SUSTAINABILITY
PRIZE



جائزة
زاييد
للاستدامة

14-yanvar kuni davlatimiz rahbari "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" xalqaro sammitining ochilishi hamda barqaror rivojlanish sohasida Shayx

Zoid nomidagi mukofotni topshirish marosimida ishtirok etdi. Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi — bu

2008-yilda BAA hukumati va "Masdar" kompaniyasi tomonidan barqaror rivojlanish sohasidagi global muammolarni hal qilish uchun tashkil etilgan

xalqaro platformadir. Forumning maqsadi jahonda barqaror taraqqiyotni jadallashtirish, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishga ko'maklashish, oziq-ovqat va suv xavfsizligini ta'minlash, energiya tejamliligini va karbonsizlantirishni ilgari surishdan iborat.

Bu galgi sammit kun tartibiga "yashil" iqtisodiyot sohasida barqaror taraqqiyotni ta'minlash, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalari kiritilgan.

Forum doirasida Amirliklar asoschisi — marhum Shayx Zoid Ol Nahayon nomi bilan ataluvchi barqaror rivojlanish sohasidagi yutuqlar uchun mukofot bilan taqdirlash marosimi ham o'tkazildi. Bu galgi mukofotning "Global o'rta maktablar" nominatsiyasida Toshkent shahridagi Prezident maktabi g'olib deb topildi.

Mukofotni Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon topshirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktab vakillari bilan uchrashib, ularni g'alaba bilan qizg'in tabrikhladi.

Davlatimiz rahbari "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" sammitida nutq so'zlad.

Sammitda Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni,

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim, Finlyandiya Respublikasi Bosh vaziri Petteri Orpo hamda qator boshqa mamlakatlarning davlat va hukumatlari, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlari rahbarlari ishtirok etdi.

Forumning kun tartibiga muvofiq, barqaror taraqqiyotni ta'minlash, innovatsiyalar, "yashil" iqtisodiyot va mintaqaviy o'zaro bog'liqlikni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida bugungi kunda energetika manbalarini diversifikatsiya qilish, ulardagi uglevodorod ulushini keskin kamaytirish — iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, barqaror rivojlanish va global xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti ekanini ta'kidladi.

Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi — ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamliligiga asoslangan "yashil" rivojlanish modeliga o'tishdir.

— Shu bois 2025-yilni O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili", deb e'lon qildik, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Prezidenti yurtimizda Kam uglerodli rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va "yashil" moliyalashtirish milliy dasturi ishlab chiqilgan, investitsiya loyihalarida "yashil" komponentlar kelgusi besh yilda 50 foizgacha ko'paytirilishini qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "ABU-DABI BARQAROR RIVOJLANISH HAFTALIGI" SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli a'yanlar, ishtirokchilar! Avvalambor, ushbu sammitga taklif qilganlari uchun aziz birodarim, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon A'lo Hazratlariga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Nufuzi yil sayin oshib borayotgan "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" Amirliklarning jadal taraqqiyot, innovatsiyalar, "yashil" iqtisodiyot va mintaqaviy bog'liqlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro muloqot markazlaridan biriga aylanib borayotganining o'ziga xos ifodasidir.

Bu go'zal diyarda "COP-28" — Jahon iqlim sammiti g'oyat sermahsul va muvaffaqiyatli o'tgani ham buning yana bir yaqqol tasdiq'idir.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Bugungi kunda energetika manbalarini diversifikatsiya qilish, ularning balansida uglevodorod ulushini keskin kamaytirish — iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, barqaror rivojlanish va global xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartidir.

Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi

— ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamliligiga asoslangan "yashil" rivojlanish modeliga o'tishdir.

Shu bois 2025-yilni O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qildik.

Kam uglerodli rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va "yashil" moliyalashtirish milliy dasturini ishlab chiqdik. Investitsiya loyihalarida "yashil" komponentlarni kelgusi besh yilda 50 foizgacha ko'paytiramiz.

Shuningdek, Zarari gazlarni monitoring qilish va Milliy emissiya savdo tizimlarini joriy etamiz. 2030-yilgacha zararli chiqindilarni 35 foizga qisqartirish va bu majburiyatni doimiy oshirib borishni reja qilganmiz.

"Yashil makon" dasturi doirasida shaharlar hududlarining kamida 30 foizi ko'kalamzor maydonlarga aylantiriladi. Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni 100 foiz tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar qilyapmiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Tez sur'atlarda o'sib borayotgan

iqtisodiyotimizning energetikaga bo'lgan talabini to'liq qondirish uchun biz "yashil" quvvatlarini jadal rivojlantiryapmiz.

O'tgan 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi va 9,6 gigavatt zamonaviy energiya quvvatlarini ishga tushirildi. Jumladan, 3,5 gigavattli 14 ta quyosh, shamol elektr stansiyalari va 300 megavattli 2 ta saqlash tizimlari ishga tushirildi.

Hozirda xorijiy hamkorlar bilan qiymati 26 milliard dollardan ziyod va umumiy quvvati 24 gigavatt bo'lgan 50 dan ortiq yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2030-yilga qadar mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazishni reja qilganmiz.

Bugungi kunda "yashil" taraqqiyot O'zbekistonda umummilliy harakat darajasiga ko'tarildi.

Mazkur yo'nalishda mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirib, Markaziy Osiyoni "yashil" iqtisodiy rivojlanish va "toza energiya" markazlaridan biriga aylantirish niyatidamiz.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANING 33 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Qadri yurtdoshlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakkob etaman.

Barchamiz uchun shon-sharaf timsoliga aylangan mana shu qutlug' ayyomda o'z hayotini Vatan himoyasidagi ulug' ishga bag'ishlagan botir va dovyurak o'g'lonlarimizni, muhtaram faxriylarimizni tabriklab, ularning sha'niga eng ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Sizlarning azmu shijoatingiz, el-yurtga sadoqatingiz tufayli xalqimizning tinch va osoyishtda hayoti ta'minlanmoqda, mamlakatimizning mudofaa salohiyati mustahkamlanmoqda, milliy quvvatlarimizning jangovar qobiliyati yuksalmoqda.

Yurtimiz bo'ylab jasorat madhiyalari yangrayotgan bugungi ulug' kunlarda Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan qahramon harbiylarimizning so'nmas xotirasini oldida barchamiz hurmat bajo keltiramiz.

Fursatdan foydalanib, mard va bahodir yurt posbonlarini tarbiyalagan barcha ota-onalarga, harbiy xizmat davomida Vatan himoyachilariga tog'dek tayanch bo'lib kelayotgan ularning oila a'zolariga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Aziz do'stlar!

Keyingi yillarda olib borayotgan keng ko'lami islohotlarimiz tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxsizligi, xalqimizning tinch va osoyishtda hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib bormoqda.

Barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog' va texnika

bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda. Milliy armiyamiz ular uchun, yoshlarimiz uchun mardlik va shon-sharaf maktabiga aylangan. Eng muhimi, xalq bilan armiya tobora yaqin bo'lib borayotgani harbiy soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag'ishlamogda.

Bugungi kunda navqiron avlodimiz o'rtasida harbiy xizmatga qiziqish kuchayib, minglab yigit-qizlarning Vatan himoyasiga dadil bel bog'layotgani barchamizni cheksiz quvontiradi. Biz ana shunday o'tyurak farzandlarimiz timsolida bo'lg'usi qahramonlarimiz, Qurolli Kuchlarimizning bo'lajak ofitser va generalari, mohir qo'mondonlarni ko'ramiz.

Ayni vaqtda barchamiz yaxshi anglaymizki, hozirgi vaqtda, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o'ta murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosida bu borada boshlangan ishlarimizni mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko'tarishimiz shart. Xususan, Qurolli Kuchlarimizni yangi, modernizatsiya qilingan o't ochish tizimlari va texnika bilan ta'minlashni harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini, qo'shinlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda davom ettiramiz.

Harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda boshlang'ich harbiy ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Askar va ofitserlarning professional mahorati, harbiy bilim yurtlarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, malakali harbiy kadrlar zaxirasini yaratish doimo ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy himoya qilish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash bundan buyon ham diqqatimiz markazida bo'ladi.

Ana shu muhim vazifalarni bajarishda, hech shubhasiz, harbiy-ma'muriy sektorlar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtiroki g'oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki xalq bilan muloqot va maslahat asosida, uning ishtirokida amalga oshirilgan ish albatta qudratli ijobiy kuchga ega bo'ladi.

Umuman, bugungi kunda barchamiz — qaysi soha yoki tarmoqda, qanday lavozimda ishlamaylik, Vatan himoyachisi bo'lishimiz zarur. Bu talabni davming o'zi oldimizga qat'iy vazifa qilib qo'yimoqda va xalqimiz ham bizdan aynan shuni kutmoqda.

Qadri Vatan himoyachilari! Ona yurt qalqonlari, tinchlik posbonlari sharaflanadigan mana shu quvonchli kunda siz, azizlarni shonli bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlayman.

Barchangizga muqaddas qasamyodingizga sodiq qolib, xizmat burchingizni yuksak darajada ado etishda mustahkam sog'liq, ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik, fayzu baraka tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo'lida hech qachon tolmang, yutuq va zafarlar doimo sizlarga yor bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti,
Qurolli Kuchlar
Oliy Bosh Qo'mondoni

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

Kosmik faoliyat to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 19-dekabrda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modd. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi kosmik faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modd. Kosmik faoliyat to'g'risidagi qonunchilik

Kosmik faoliyat to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining kosmik faoliyat to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modd. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
yer usti kosmik infratuzilmasi obyektlari — kosmik faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan yer usti inshootlari, binolari va texnikalari;

Yerni masofadan zondlash — kosmik apparatlarga va boshqa qurilmalarga (samolyot, vertolyot, uchuvchisiz uchish apparatlari va boshqalarga) o'rnatilgan uskunalar orqali yer ustidagi va yer q'ridagi obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish jarayoni;

Yerni masofadan zondlash milliy operatori (bundan buyon matnda Milliy operator deb yuritiladi) — kosmik tizimlarni boshqarish va (yoki) ulardan foydalanish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan, kosmik faoliyat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan yuridik shaxs;

kosmik apparat — kosmik fazoni va Yerni tadqiq etish imkonini beradigan, kosmik fazoga uchirish uchun mo'ljallangan texnik qurilma, shu jumladan sun'iy yo'ldosh apparati;

(Davomi 2, 3-bettarda).



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYEVNING "ABU-DABI BARQAROR RIVOJLANISH HAFTALIGI" SAMMITIDAGI NUTQI

Qadimgi Buyuk Ipak yo'lini o'zaro energetik bog'liqlik orqali tiklash yo'lida ham ilk qadamlarni tashladik. Yaqinda "COP-29" doirasida qozog'istonlik va ozarbayonlik hamkorlarimiz bilan imzolangan ko'p tomonlama bitim Yevropaga "yashil" energiyani eksport qilish imkoniyatini beradi.

Shuni alohida qayd etmoqchimanki, "yashil" energiya sohasida Birlashgan Arab Amirliklari bizning ishonchli va strategik hamkorimizdir. So'nggi yillarda Amirliklar bilan investitsiyalar portfeli 26 milliard dollardan oshdi. Ular orasida qayta

tiklanuvchi energetika loyihalari asosiy lokomotiv bo'lmoqda.

Bugungi global sammit tashkilotchisi – "Masdar" kompaniyasi bilan umumiy quvvati 1,5 gigavatt bo'lgan 5 ta elektr energiya obyektini ishga tushirdik. Yana 1,6 gigavattga teng 3 ta generatsiya loyihasi va qariyb 520 megavatt-soat energiya saqlash tizimlari barpo etiladi.

Bu kabi loyihalarni Amirliklarning boshqa yetakchi kompaniyalari hamda Saudiya Arabistoni, Qatar, Turkiya, Xitoylik sheriklarimiz bilan ham amalga oshiryapmiz.

Hurmattli anjuman ishtirokchilari!

Biz Markaziy Osiyoning quyosh, suv, shamol energiyasi hamda "yashil" vorodrodi ishlab chiqarish bo'yicha ulkan salohiyatini birgalikda rivojlantirishdan manfaatdormiz.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra faqat O'zbekistonning o'zida 500 gigavatt quyosh, 100 gigavatt shamol va 10 gigavatt gidroenergiya ishlab chiqarish salohiyati mavjud.

Mintaqamiz ulkan uran va o'ta muhim strategik xomashyo zaxiralarga boy. Bu yo'nalishda har bir xorijiy hamkorimizga

barcha qulay shart-sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz.

Anjumanimizda ishtirok etayotgan nufuzli ilmiy markazlar, ekspert va olimlarni Toshkentda ochilgan "Yashil" universitet bilan tadqiqotlar va innovatsiya dasturlarini amalga oshirishda faol hamkorlikka chaqiramiz.

Mazkur universitet negizida Yer degradatsiyasi va cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqot tarmog'ini yaratishni taklif etmoqchiman.

Shu bilan birga, biz Dubay va Bokuda bo'lib o'tgan "COP-28" va "COP-29"

sammitlari va xalqaro forumlarda global iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markazni ta'sis etish, daryo ekotizimlari xavfsizligini ta'minlash, Suv tejoychi texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil qilish, O'simliklar genetik resurslari bankini yaratish tashabbuslarini ilgari surdik va barcha hamkorlarimiz bilan amaliy ishlarni boshlashga tayyormiz.

Joriy yil O'zbekistonda o'tishi rejalashtirilgan Markaziy Osiyoning global iqlim muammolariga bag'ishlangan

konferensiyada umumintaqaviy "Yashil" taraqqiyot konsepsiyasini taqdim etamiz.

Shuningdek, 15-may – Xalqaro iqlim kunida Orolbo'yi mintaqasida bo'ladigan Raqamli "yashil" tashabbuslar global yoshlar festivaliga vakillaringizni taklif etamiz.

Hurmattli do'stlar!

Yangi O'zbekiston barqaror rivojlanish va "yashil" taraqqiyot yo'lida butun dunyoga ochiqdir va barchangizni keng ko'lamli amaliy hamkorlikka chaqiramiz.

So'zinning yakunida anjuman ishiga katta muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

O'ZBEKISTON VA BIRLASHGAN ARAB AMIRLIK LARI STRATEGIK HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRADI

"Issiqxona gazlari"ni monitoring qilish va emissiya uchun kvotalar savdosi bo'yicha milliy tizimlarni joriy etish ishlari davom etmoqda. 2030-yilga borib "Issiqxona gazlari" chiqarilishini 35 foizga qisqartirish va bu majburiyatni bosqichma-bosqich oshirib borish reja qilingan.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida shaharlar hududlarining kamida 30 foizi ko'kalimzor maydonlarga aylantiriladi. Qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni 100 foiz tatbiq etish tizimli choralar ko'rilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tez sur'atlarda o'sib borayotgan iqtisodiyotimizning energetikaga bo'lgan talabini to'liq qondirish uchun "yashil" quvvatlar jadal rivojlantirilayotganiga e'tibor qaratadi.

O'tgan 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar energiya investitsiyalar jalb qilindi va 9,6 gigavatt zamonaviy energiya quvvatlari ishga tushirildi. Jumladan, 3,5 gigavattli 14 ta quyosh, shamol elektr stansiyalari va 300 megavattli 2 ta saqlash tizimlari ishga tushirildi, – dedi davlatimiz rahbari.

Hozirda xorijiy hamkorlar bilan qiymati 26 milliard dollardan ziyod va umumiy quvvati 24 gigavatt bo'lgan 50 dan ortiq yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2030-yilga qadar mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda "yashil" taraqqiyot O'zbekistonda umummilliy harakat darajasiga ko'tarildi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari mazkur yo'nalishda mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirib, Markaziy Osiyoni "yashil" iqtisodiy rivojlanish va "toza energiya" markazlaridan biriga aylantirish muhimligini qayd etdi.

Qadimgi Buyuk Ipak yo'lini o'zaro energetik bog'liqlik orqali tiklash yo'lida ham ilk qadamlar tashlandi. Yaqinda "COP-29" sammiti doirasida Qozog'iston va Ozarbayon bilan imzolangan ko'p tomonlama bitim Yevropaga "yashil" energiyani eksport qilish imkoniyatini beradi.

Shuni alohida qayd etmoqchimanki, "yashil" energiya sohasida Birlashgan Arab Amirliklari bizning ishonchli va strategik hamkorimizdir, – dedi O'zbekiston yetakchisi.

So'nggi yillarda Amirliklar bilan investitsiyalar portfeli 26 milliard dollardan oshdi. Ular orasida qayta tiklanuvchi energetika loyihalari asosiy lokomotiv bo'lmoqda.

"Masdar" kompaniyasi bilan umumiy quvvati 1,5 gigavatt bo'lgan 5 ta elektr energiya objekti

ishga tushirildi. Yana 1,6 gigavattga teng 3 ta generatsiya loyihasi va qariyb 520 megavatt-soat energiya saqlash tizimlari barpo etiladi.

Bu kabi loyihalar Amirliklarning boshqa yetakchi kompaniyalari hamda Saudiya Arabistoni, Qatar, Turkiya, xitoylik sheriklar bilan ham amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz Markaziy Osiyoning quyosh, suv, shamol energiyasi hamda "yashil" vorodrodi ishlab chiqarish bo'yicha ulkan salohiyatini birgalikda rivojlantirishdan manfaatdor ekanini ta'kidledi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra faqat O'zbekistonning o'zida 500 gigavatt quyosh, 100 gigavatt shamol va 10 gigavatt gidroenergiya ishlab chiqarish salohiyati mavjud.

Mintaqamiz ulkan uran va o'ta muhim strategik xomashyo zaxiralarga boy.

Bu yo'nalishda har bir xorijiy hamkorimizga barcha qulay shart-sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz, – dedi O'zbekiston yetakchisi.

Prezidentimiz anjumanida ishtirok etayotgan nufuzli ilmiy markazlar, ekspert va olimlarni Toshkentda ochilgan "Yashil" universitet bilan tadqiqotlar va innovatsiya dasturlarini amalga oshirishda faol hamkorlikka chaqirdi.

Mazkur universitet negizida Yer degradatsiyasi va cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot tarmog'ini yaratish taklif etildi.

Dubay va Bokuda bo'lib o'tgan "COP-28" va "COP-29" sammitlari hamda boshqa xalqaro forumlarda O'zbekiston global iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun qator tashabbuslarni ilgari surgan edi.

Iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markazni ta'sis etish, daryo ekotizimlari xavfsizligini ta'minlash, Suv tejoychi texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil qilish, O'simliklar genetik resurslari bankini yaratish shular jumlasidan.

Bu borada barcha hamkorlarimiz bilan amaliy ishlarni boshlashga tayyormiz, – dedi O'zbekiston Prezidenti.

Davlatimiz rahbari joriy yil O'zbekistonda o'tishi rejalashtirilgan Markaziy Osiyoning global iqlim muammolariga bag'ishlangan konferensiyada umumintaqaviy "Yashil" taraqqiyot konsepsiyasi taqdim etilishini aytdi.

Shuningdek, sammitda ishtirok etayotgan mamlakatlar vakillari 15-may – Xalqaro iqlim kunida Orolbo'yi mintaqasida bo'ladigan Raqamli "yashil" tashabbuslar global yoshlar festivaliga taklif etildi.

So'zining yakunida mamlakatimiz yetakchisi Yangi O'zbekiston barqaror rivojlanish va "yashil" taraqqiyot yo'lidagi keng hamkorlikka butun dunyoga ochiqdigi qayd etdi.

Prezident Mirziyoyev Abu-Dabi shahriga tashrifning ishbilarmonlik tadbirlari doirasida Birlashgan Arab Amirliklari sun'iy intellekt vaziri Umar bin Sulton al-Olama bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda "Presight" kompaniyasi rahbari Tomas Pramotedam, "AIQ" kompaniyasi rahbari Magjan Kenesbay va "Khazna" kompaniyasi rahbari Hasan al-Naqbi, Muhammad bin Zoid nomidagi Sun'iy intellekt universiteti prezidenti Erik Sing ham ishtirok etdi.

"Presight", "AIQ" va "Khazna" kompaniyalari katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt sohasida yetakchi kompaniyalar qatoriga kiradi. Muhammad bin Zoid universiteti sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlarga ixtisoslashtirilgan dunyodagi birinchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Uchrashuvda Amirliklar kompaniyalari bilan ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish va ulami turli sohalarga muvaffaqiyatli joriy etishga qaratilgan strategik sheriklikni kengaytirish yo'llari ko'rib chiqildi.

Generativ sun'iy intellektni ishlab chiqish, shu jumladan, energetika sohasida "katta til modellarini"ni qo'llash, Toshkentda yirik ma'lumotlarni qayta ishlash markazini tashkil etish borasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Muhammad bin Zoid nomidagi Sun'iy intellekt universiteti bilan almashinuvlarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz talabalarni o'qitish dasturini ishga tushirib, bu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishni taklif etdi.

Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini birgalikda ishga tushirish, texnologik klasterlar tashkil qilish va kontaktsiz to'lov operatsiyalari uchun innovatsion yechimlarni joriy etish rejalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Abu-Dabi shahriga tashrif doirasida Birlashgan Arab Amirliklari investitsiyalar vaziri, "ADQ" xoldingi bosh ijrochi direktori Muhammad Hasan al-Suvaydiy boshchiligidagi ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalari delegatsiyasi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda "AD Ports Group" kompaniyasi rahbari Muhammad Juma al-Shamsiy, "Tadweer" rahbari Ali al-Daheriy, "Plenary Group" rahbari

Mustafo Faxur va "DUCAB" rahbari Muhammad al-Kurashiy ishtirok etdi.

Ushbu kompaniyalar o'z sohalarida jahon yetakchilaridan biri bo'lib, ularning jami aktivlari 200 milliard dollardan ziyodni tashkil etadi.

Yuqori texnologik tarmoqlarda amaliy hamkorlikni rivojlantirish va investitsiya portfelin kengaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

BAA bilan iqtisodiyotning turli yo'nalishlarida sheriklik jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Investitsiyalarni ilgari surish, sanoat va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar amalga oshirilmog'da.

Har bir kompaniya bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo'yicha navbatdagi qadamlar belgilandi. Infratuzilmani rivojlantirish, shaharsozlik, energetika, transport va logistika, tog'-kon sanoati, elektrotexnika, kommunal xo'jaligi va boshqa sohalarda qo'shma loyihalar haqida so'z yuritildi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, nodir metall konlarini o'zlashtirish, mintaqaviy temir yo'llarni rivojlantirish va "quruq" portlar barpo etish, kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini jadallashtirish, ta'lim va tibbiyot sohasida DXSH loyihalarini ilgari surish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Uchrashuv yakunida amaliy hamkorlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl Muhammad al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda "Masdar" kompaniyasi rahbari Muhammad Jamil al-Ramahiy, "TAQA" rahbari Jasim Husayn Tabet, "TAQA Water Solutions" rahbari Ahmad al-Shamsiy va "Etihad Water & Electricity" rahbari Yusuf al-Ali ham ishtirok etdi.

Mazkur kompaniyalar energiya va suv ta'minoti, tozalash tizimlarini boshqarish sohasida jahondagi yetakchi ishlab chiqaruvchi va operatorlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda "yashil" energetika, kommunal xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari energetika sohasidagi strategik sheriklik ikki tomonlama hamkorlikning lokomotivi bo'lib xizmat qilayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bu borada umumiy qiymati 1,5 milliard dollari

5 ta loyiha birgalikda ishga tushirildi. Dekabr oyida Navoiy viloyatida quvvati 500 megavatt bo'lgan shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi, yana bir qator obyektlar qurilishi faol bosqichga kirgan.

O'zbekiston Prezidenti kompaniyalarning mamlakatimiz hududlarida mavjud issiqlik elektr stansiyalari quvvatlarini kengaytirish, past kuchlanishli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi GESlar, elektr energiyasini saqlash tizimlari, yirik quyosh va shamol stansiyalari qurilishini jadallashtirish borasidagi rejalarni qo'llab-quvvatladi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini asosida suv ta'minoti tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tozalash inshootlarini barpo etish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Abu-Dabi shahriga tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida "AMEA Power" kompaniyasi rahbari Husayn al-Novays, "M42" kompaniyasi rahbari Hasan Jasim al-Novays va "IFFCO Group" kompaniyasi rahbari Sheraz Allanni qabul qildi.

"AMEA Power" – qayta tiklanuvchi energiya sohasida tez sur'atda rivojlanayotgan kompaniya. 20 mamlakatda umumiy quvvati 6 gigavatt dan ortiq bo'lgan loyihalar portfeliga ega. "M42" innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida yetakchi kompaniyalardan biri hisoblanadi. "IFFCO Group" oziq-ovqat sohasida 100 dan ortiq brendlarni boshqaradi.

Energetika, innovatsiyalar, sog'liqni saqlash va oziq-ovqat sanoatida qo'shma loyihalarni ilgari surish hamda BAA kompaniyalari bilan innovatsion hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

"AMEA Power" kompaniyasi bilan hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Shamol elektr stansiyalari, energiya saqlash tizimlarini qurish, neft-kimy o'zaro sohasida yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil etish loyihalarini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, "M42" kompaniyasi bilan genomika sohasida, "IFFCO Group" bilan esa oziq-ovqat sanoati va maishiy kimyo uchun ingridiyentlar ishlab chiqarishda o'zaro manfaatli sheriklikni mustahkamlashga e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklarga rasmiy tashrif davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

Kosmik faoliyat to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

kosmik monitoring – kosmik xizmatlarning kosmik monitoring obyektlari holatini kosmik apparatlar yordamida olingan kosmik suratlariga, shuningdek boshqa qo'shimcha ma'lumotlarga ishlav berish hamda ularni tahlil qilish orqali o'rganishga qaratilgan tarkibiy qismi;

kosmik obyekt – kosmik fazoda ishlash uchun mo'ljallangan texnik qurilma, shu jumladan kosmik apparat va (yoki) uni kosmik fazoga olib chiqish vositasi hamda ularning tarkibiy qismlari;

kosmik surat – kosmik apparatlarga o'rnatilgan maxsus qurilmalar yordamida elektromagnit spektrining turli diapazonlarida olingan va ma'lum bir algoritim bo'yicha vizuallashtiriladigan ikki o'lchovli tasvir;

kosmik texnologiyalar – kosmik faoliyatni amalga oshirish, shuningdek ushbu faoliyat natijalarini olish va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan axborotni va (yoki) ma'lumotlarni to'plash, saqlash, izlash, ularga ishlav berish hamda ularni tarqatish uchun foydalaniladigan uslublar, qurilmalar, vositalar, usullar va jarayonlar majmui;

kosmik tizim – kosmik fazoni va Yerni tadqiq etish hamda uning natijalaridan foydalanish uchun mo'ljallangan, kosmik obyektlarni va yer usti kosmik infratuzilmasi obyektlarini o'z ichiga oladigan, funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan texnik vositalar hamda amaliy ishlar majmui;

kosmik fazo – Yer atmosferasidan tashqaridagi havo hududini o'zining tabiiy xususiyatiga ko'ra o'rab turadigan, kosmik obyektlar o'z funksional vazifalarini amalga oshira oladigan fazo;

kosmik faoliyat – ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiyaga, axborotga, tijoratga, mudofaaga, xavfsizlikka oid maqsadlarga va boshqa sohalarga oid maqsadlarga erishish uchun kosmik texnologiyalar vositasida kosmik fazoni va Yerni tadqiq etishga hamda ulardan foydalanishga qaratilgan faoliyat;

kosmik faoliyat obyektlari – kosmik faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan kosmik infratuzilma obyektlari;

kosmik faoliyat subyektlari – kosmik faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, shu jumladan ushbu Qonunga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida kosmik faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar;

kosmik xizmatlar – kosmik ma'lumotlardan, kosmik va raqamli texnologiyalardan iborat bo'lgan geoaxborot tizimlaridan foydalangan holda, shu jumladan kosmik monitoring orqali ko'rsatiladigan xizmatlar.

4-modd. Kosmik faoliyatning asosiy prinsiplari

Kosmik faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatida va kosmik faoliyat imkoniyatlaridan samarali foydalanish; kosmik texnologiyalardan foydalangan holda sohalarning raqamlashtirilish darajasini hamda shaffoqligini oshirishga ko'maklashish; teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish; kosmik faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirish;

kosmik faoliyatni amalga oshirishda ekologik talablarga, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga va aholining sanitar-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga doir talablarga rioya etilishi ustuvorligi.

5-modd. Kosmik faoliyatni amalga oshirishning asosiy maqsadlari

Kosmik faoliyatni amalga oshirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashish;

Yerni, kosmik fazoni va samoviy jismlarni tadqiq etish, shuningdek ular to'g'risidagi ilmiy bilimlarni to'plash va rivojlantirish;

kosmik texnologiyalar yordamida sohalarning raqamlashtirilishini jadallashtirish;

ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiyaga, tijoratga oid sohalarda va boshqa sohalarning manfaatlarini ko'zlagan holda mamlakat hududini kosmik texnologiyalar yordamida tadqiq etish;

kosmik faoliyat sohasida kosmik xizmatlar ko'rsatish;

iqlim o'zgarishining oldini olish va uning ta'sirini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududini doimiy ravishda monitoring qilib borishga ko'maklashish;

kosmik faoliyat sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2-bob. Kosmik faoliyat sohasini davlat tomonidan tartibga solish

6-modd. Kosmik faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Kosmik faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

kosmik faoliyat sohasidagi yagona davlat siyosatini va strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

kosmik fazoni va sayyoralarni tinchlik maqsadlarida tadqiq etish hamda kosmik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha xalqaro hamkorlikda ishtirok etish;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish, shuningdek uning mudofaasini va xavfsizligini mustahkamlash maqsadida kosmik faoliyat natijalaridan foydalanish, kosmik obyektlarni yaratish va (yoki) uchrirish;

kosmik xizmatlarning milliy bozorini yaratish va rivojlantirish;

kosmik faoliyat to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kosmik faoliyat to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

kosmik infratuzilmani, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni, ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlarni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

(Davomi 3-betda).



O‘zbekiston Respublikasining

QONUNI

Kosmik faoliyat to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

ta'lim tashkilotlarida, shu jumladan yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida kosmik faoliyat yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyatni amalga oshiruvchi vazirliklar va idoralarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligini Yerni masofadan zondlashdan, geoaxborot tizimlaridan, kosmik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda oshirishga ko'maklashish;

o'z bo'ysunuvida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalarga ega bo'lgan vazirliklar va idoralarga mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq maxsus topshiriqlar va vazifalarni bajarishda geoaxborot tizimlaridan, kosmik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amaliy yordam ko'rsatish;

iqtisodiyotning tarmoqlaridagi qonunchilik buzilishi hollarini kosmik suratlarga ishlov berish va ularni tahlil qilish orqali aniqlashga ko'maklashish;

kosmik faoliyat sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

vazirliklar va idoralar tomonidan faoliyatning tegishli sohalarida amalga oshiriladigan monitoring jarayonlarida kosmik texnologiyalarni qo'llashga doir takliflarni ishlab chiqish va ishlarni muvofiqlashtirish;

tarmoqqa vazirliklar va idoralar tomonidan kosmik texnologiyalarning qo'llanilish darajasini monitoring qilish hamda ularning joriy etilishini jadallashtirish;

kosmik faoliyatni ommalashtirishga doir ishlarni ilm-fan va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish;

geoaxborot ma'lumotlar bazasini to'ldirish va yangilab borish.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kosmik faoliyat sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

kosmik faoliyat sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

kosmik faoliyat sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

kosmik faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

foydalanishdan chiqarilgan kosmik obyektlarni va texnik vositalarni utilitatsiya qilish tartibini belgilaydi;

kosmik faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining kosmik faoliyat sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi kosmik faoliyat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda hamda strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligiga ko'maklashadi;

kosmik faoliyat to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

kosmik infratuzilmani, kosmik tadqiqotlarni va texnologiyalarni, ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

ta'lim tashkilotlarida, shu jumladan yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida kosmik faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyatni amalga oshiruvchi vazirliklar va idoralarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligini Yerni masofadan zondlashdan, geoaxborot tizimlaridan, kosmik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda oshirishga ko'maklashadi;

o'z bo'ysunuvida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalarga ega bo'lgan vazirliklar va idoralarga mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq maxsus topshiriqlar va vazifalarni bajarishda geoaxborot tizimlaridan, kosmik hamda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amaliy yordam ko'rsatadi;

kosmik monitoring obyektlarida kosmik monitoring, shu jumladan davlat kosmik monitoringi amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tarmoqqa mansubligi bo'yicha vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan monitoring jarayonlarida kosmik texnologiyalarni qo'llashga doir takliflarni ishlab chiqadi va ishlarni muvofiqlashtiradi;

tarmoqlarda vazirliklar va idoralar tomonidan kosmik texnologiyalarning qo'llanilish darajasini monitoring qiladi va ularning joriy etilishini jadallashtiradi;

kosmik faoliyatni ommalashtirish bo'yicha ishlarni ilm-fan va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etadi;

kosmik faoliyatni amalga oshirish chog'ida kuzatishlarni olib boradi, olingan ma'lumotlarni to'playdi, ularga ishlov beradi, ularni tahlil qiladi, saqlaydi va ulardan foydalanadi;

kosmik faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi, shuningdek kosmik fazoni tadqiq etish va undan foydalanish bilan bog'liq xalqaro-huquqiy masalalarni hal qilishga ko'maklashadi hamda xalqaro majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi;

kosmik suratlarni qabul qilish, ularga ishlov berish va ularni tarqatish tartibini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

kosmik fazoga uchiriladigan O'zbekiston Respublikasining kosmik obyektlarini xalqaro standartlarga va qonunchilikka muvofiq tamg'alashni amalga oshiradi;

harbiy maqsadga va ikki xil maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni ishlab chiqishga, ishlab chiqarishga va yetkazib berishga hamda kosmik infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga doir davlat mudofaa buyurtmasini O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan birgalikda shakllantiradi;

ikki xil maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan birgalikda belgilaydi va tegishli tadqiqotlarni tashkil etadi;

kosmik faoliyat sohasidagi dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi; kosmik faoliyat sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiradi;

Milliy operatorni belgilaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining kosmik faoliyat sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi:

kosmik faoliyat, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi hamda strategik yo'nalishlarni ishlab chiqadi, shuningdek maxsus vakolatli davlat organining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

kosmik faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasida kosmik faoliyat sohasidagi dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

xalqaro hamkorlik doirasida maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining kosmik faoliyat sohasidagi manfaatlarini ifoda etadi va amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtiradi;

Maxsus faoliyat sohasidagi davlat nazoratini ishlab chiqadi va amalga oshiradi hamda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amaliy yordam ko'rsatadi;

Milliy operatorni belgilaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining kosmik faoliyat sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi mamlakat mudofaasi va xavfsizligi manfaatlarini ko'zlagan holda, kosmik faoliyat imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek harbiy kosmik texnologiyalarni yaratish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

harbiy maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda ikki xil maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni yaratish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

mamlakat mudofaasi va xavfsizligi manfaatlarini ko'zlagan holda, kosmik texnologiyalardan foydalanishni rejalashtiradi va amalga oshiradi;

qo'llanilishi kosmik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikani yaratishga, ishlab chiqarishga va yetkazib berishga doir davlat mudofaa buyurtmasini shakllantirishni amalga oshiradi;

harbiy maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda ikki xil maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;

harbiy maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda ikki xil maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;

harbiy maqsadga mo'ljallangan kosmik texnologiyalarning sinovdan o'tkazilishini maxsus vakolatli davlat organi hamda boshqa manfaatdor vaziritklar va idoralar bilan birgalikda tashkil etadi;

mamlakat mudofaasi va xavfsizligi manfaatlarini ko'zlagan holda, kosmik faoliyat sohasidagi davlat siyosati bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro kosmik loyihalari va dasturlarini amalga oshirishda maxsus vakolatli davlat organi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ishtirok etadi;

kosmik texnologiyalarning harbiy maqsadlarga muvofiqligi to'g'risidagi xulosani tayyorlaydi va maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi;

mamlakat mudofaasi va xavfsizligi manfaatlarini ko'zlagan holda, kosmik faoliyat sohasidagi istiqbolli yo'nalishlarni rivojlantirishga doir takliflarni ishlab chiqadi va maxsus vakolatli davlat organiga kiritadi.

3-bob. Kosmik faoliyatni tashkil etish

11-modda. Kosmik faoliyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish

Kosmik faoliyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlar kosmik faoliyatning ilmiy jihatdan kuzatib borilishini ta'minlashni, kosmik texnologiyalarning yangi namunalarini ishlab chiqishni, kosmik texnologiyalarni rivojlantirishga, joriy etishga va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan kosmik sinovlarni, fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Kosmik faoliyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ilmiy va ilmiy-texnikaviy loyihalar doirasida amalga oshiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Kosmik tizimlarni yaratish bo'yicha loyihalar ilmiy tadqiqotlarni, ishlanmalarni hamda kosmik faoliyat obyektlarini va ularning tarkibiy qismlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, loyihalashtirish, ishlab chiqarish, o'rnatish, qurish, sinovdan o'tkazish, shuningdek ulardan foydalanish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Kosmik faoliyat sohasidagi ilmiy va ilmiy-texnikaviy loyihalar hamda kosmik tizimlarni yaratish bo'yicha loyihalar olimlarni, yuqori malakali mutaxassislarni, jamoat tashkilotlarini, O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tashkilotlarini, shuningdek xalqaro ekspertlarni va chet davlatlarning olimlarini jalb etgan holda amalga oshiriladi.

12-modda. Kosmik tizimlarning turlari

Quyidagilar kosmik tizimlarning turlari jumlasiga kiradi:

Yerni masofadan zondlash;

kosmik monitoring;

davlat kosmik monitoringi;

kosmik aloqa tizimi;

yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi;

kosmik tizimlarning ilmiy, iqtisodiy, ekologiyaga, axborotga va tijoratga oid maqsadlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yaratilgan boshqa turlari.

13-modda. Yerni masofadan zondlash

Milliy operator ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiyaga, axborotga, tijoratga oid maqsadlarda, shuningdek mamlakat mudofaasi va xavfsizligi ehtiyojlari uchun Yerni masofadan zondlash ma'lumotlarini olishni rejalashtirish, olish, ularga ishlov berishni, ularni saqlash va tarqatishni amalga oshiradi. Zarurat bo'lganda Milliy operator Yerni masofadan zondlashga doir ma'lumotlarni vazirliklar hamda idoralarga, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etadi.

14-modda. Kosmik monitoring

Kosmik monitoring Milliy operator tomonidan mahalliy va (yoki) xorijiy kosmik apparatlar va texnologiyalar vositasida amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq mulkchilik shakli, huquqiy rejimi va xususiyatidan qat'i nazar, yer usti, kosmik fazo va ularda joylashgan barcha obyektlar, shuningdek tabiiy va texnogen xususiyatli hodisalar kosmik monitoring obyektlari deb hisoblanadi.

Kosmik monitoring vazirliklar va idoralarga, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarga kosmik xizmatlar ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladi.

Kosmik monitoring quyidagi tartibda amalga oshiriladi: vazirliklar va idoralar kelgusi yil uchun kosmik xizmatlarga, jumladan ushbu xizmatlarning hajmi, davriyligi va ularni taqdim etish muddatlari haqidagi, shu jumladan kosmik monitoringga bo'lgan ehtiyoj to'g'risidagi ma'lumotlarni (shunday ehtiyoj mavjud bo'lganda) har yili 20-iyulga qadar maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi;

maxsus vakolatli davlat organi taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ehtiyojlarni o'rganadi va maqbulashtiradi hamda kelgusi yilning oxiriga qadar kosmik xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etadi.

15-modda. Davlat kosmik monitoringi

Davlat kosmik monitoringi kosmik monitoring obyektlarida sodir bo'layotgan jarayonlar va o'zgarishlar tamoyillarini davlat manfaatlarini ko'zlagan, kosmik texnologiyalardan foydalangan holda o'rganishdan, shu jumladan Yerni masofadan zondlash ma'lumotlariga va boshqa ma'lumotlarga ishlov berishdan hamda ularni tahlil qilishdan, shuningdek qonunchilikning buzilishi hollarini aniqlashga ko'maklashishdan iboratdir.

Davlat kosmik monitoringi faqat Milliy operator tomonidan amalga oshiriladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Davlat kosmik monitoringi ushbu muddaning to'rtinchi – sakkizinchi qismlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Maxsus vakolatli davlat organi davlat kosmik monitoringini amalga oshirish maqsadida zarur birlamchi ma'lumotlarni tegishli vazirliklar va idoralardan so'rab oladi hamda ularni Milliy operatorga uzatadi.

Milliy operator davlat kosmik monitoringini amalga oshiradi va taqdim etilgan ma'lumotlar bilan solishtirib, kosmik monitoring obyektlarida sodir bo'layotgan jarayonlar va o'zgarishlar tamoyillarini aniqlaydi.

Milliy operator davlat kosmik monitoringi natijalari asosida tegishli ma'lumotlarni tayyorlaydi va maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Maxsus vakolatli davlat organi Milliy operator tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va muvofiqlashtiradi, axborot-tahliliy ma'lumotnomani tayyorlaydi hamda tegishli vazirliklar va idoralarga taqdim etadi, shuningdek ushbu ma'lumotnoma asosida vazirliklar va idoralar tomonidan ko'rilgan choralar to'g'risidagi axborotni so'rov bo'yicha oladi.

Maxsus vakolatli davlat organi davlat kosmik monitoringining natijadorligi to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

16-modda. Kosmik aloqa tizimi

Kosmik aloqa tizimi ma'lumotlar, audio- va videosignallar hamda boshqa turdagi axborotni kosmik apparatlar orqali uzatishni ta'minlash uchun mo'ljallangan kosmik va yerdagi komponentlar majmuidan iboratdir.

Kosmik aloqa tizimi yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarning kosmik apparatlar transponderlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash uchun mo'ljallangandir.

Kosmik apparatlar transponderi deganda signallarni qabul qilish, kuchaytirish va qayta uzatish uchun mo'ljallangan elektron qurilma tushuniladi.

17-modda. Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi

Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi deganda kosmik apparatlarning signallari yordamida kosmik fazo va Yerdagi obyektlarning koordinatalari, tezligi va vaqtini aniq belgilashni ta'minlash uchun mo'ljallangan texnika vositalari, dasturiy ta'minot va amaliy ishlar majmui tushuniladi.

Yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimidan fozadagi va Yerdagi obyektlarning joylashuvini hamda harakatini yuqori darajadagi aniqlik va ishonchlik bilan aniqlash hamda kuzatish uchun foydalaniladi.

18-modda. Kosmik raketa komplekslaridan (kosmodromlardan) foydalanish

Kosmik raketa komplekslaridan (kosmodromlardan) kosmik obyektlarni kosmik fazoga olib chiqish uchun foydalaniladi.

Kosmik obyektlarni kosmik raketa komplekslaridan (kosmodromlardan) foydalangan holda kosmik fazoga uchrish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

19-modda. Kosmik faoliyatni litsenziyalash

Kosmik texnologiyalarni qo'lvochi tashkilotlarning faoliyatini litsenziyalash "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

20-modda. Kosmik tizimlarni yaratish

Kosmik tizimlarni yaratish ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini, kosmik tizimlarni hamda ularning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishni, ishlab chiqarishni, o'rnatishni, qurishni va sinovdan o'tkazishni, shuningdek ularni foydalanishga topshirishni o'z ichiga oladi.

21-modda. O'zbekiston Respublikasining kosmik obyektlarini tamg'alash

O'zbekiston Respublikasining kosmik fazoga uchirilgan kosmik obyektlari xalqaro standartlarga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tamg'aga ega bo'lishi kerak.

22-modda. Kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilitatsiya qilish

Kosmik faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilitatsiya qilish uchun utilitatsiya qilinishi lozim bo'lgan kosmik obyektlarning va texnika vositalarining ro'yxatini maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilitatsiya qilish tanlangan texnologiyalarga hamda iqtisodiy maqsadga muvofiqligiga qarab, ulardan foydalanish (ularni saqlash) joyida yoki kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilitatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlarda amalga oshiriladi.

Kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilitatsiya qilishga doir ishlar, ekologiya, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, o'lchovlarning bir xilligini ta'minlash va aholining sanitariya-epidemiolog o'soyishatligini ta'minlash sohasidagi talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Foydalanishdan chiqarilgan kosmik obyektlarni va texnika vositalarini utilitatsiya qilish tartibi xalqaro shartnomalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

23-modda. Kosmik faoliyat obyektlarini ijaraga berish

Kosmik faoliyat obyektlarini kosmik faoliyat subyektlarga ijaraga berish, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4-bob. Kosmik infratuzilma

24-modda. O'zbekiston Respublikasining kosmik infratuzilma obyektlari

O'zbekiston Respublikasining kosmik infratuzilma obyektlari kosmik faoliyatning asosini tashkil etadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

yer usti kosmik infratuzilmasi obyektlarini;

kosmik obyektlarni.

O'zbekiston Respublikasining kosmik infratuzilma obyektlari muhim strategik ahamiyatga ega obyektlardir.

25-modda. Yer usti kosmik infratuzilmasi obyektlari

Yer usti kosmik infratuzilmasi obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi: ilmiy-texnik va tajriba-eksperimental kosmik tadqiqotlar bazasi; kosmik faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan kosmik texnologiyalar va kosmik raketa komplekslarini ishlab chiqarish vositalari; kosmodromlar; kosmik raketalardan ajralib chiquvchi qismlarning qulash hududlari; kosmik obyektlarni yerdan boshqarish komplekslari; kosmik obyektlardan ma'lumotlarni olish, ularga ishlov berish va ularni tarqatish uchun mo'ljallangan yer usti majmualari; kosmik faoliyatda foydalaniladigan boshqa yer usti inshootlari va texnika vositalari.

Yer usti kosmik infratuzilmasining xavfsizligini va undan xavfsiz foydalanilishini ta'minlash uchun qo'riqlanadigan yer uchastkalari tashkil etiladi.

5-bob. Kosmik faoliyat xavfsizligi

26-modda. Kosmik faoliyat xavfsizligini ta'minlash

Kosmik faoliyat odamlarning sog'lig'i saqlanishini, atrof-muhit muhofaza qilinishini hamda yuridik yoki jismoniy shaxslarning mol-mulki himoya qilinishini ta'minlash sharti bilan amalga oshiriladi.

VATANGA SADOQAT VA SHON-SHARAF SHODIYONASI

Mamlakatimizda Qurolli Kuchlarimiz tashkil topganining 33 yilligi va Vatani himoyachilari kuni keng nishonlanmoqda. Bu yil qutlug' bayramning shukhi yanada ulug'vorlik kasb etdi. Mamlakat bo'yab "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiorini o'zida mujassam qilgan vatanparvarlik oyligi doirasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, festivallar o'tkazildi.

Shukuh

Poytaxtimizda 14-yanvar kuni bir qator bayram tadbirlari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimi vakillari Vatanimizning shonli tarixi, shiddatli yangilanishlar, taraqqiyotimiz va ma'rifiy yuksalish ramzi bo'lgan "Yangi O'zbekiston" bog'ida bo'lib, harbiy orkestr musiqasi sadolari ostida Mustaqillik monumenti poyiga gullar qo'yd.

Vatani himoyachilari kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi muhtasham "Xalqlar do'stligi" san'at saroyida o'tkazilgan tantanali tadbirda senatorlar, deputatlar, hukumat a'zolari, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari, mamlakatimizda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar vakillari va keng jamoatchilik ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.

Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining

33 yilligi va Vatani himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigini mudofaa vaziri, general-mayor Shuhrat Xolmuhamedov o'qib eshittirdi.

Tabrakda ta'kidlanganidek, keyingi yillarda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib bormoqda.

Barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda. Milliy armiyamiz yoshlarimiz uchun mardlik va shon-sharaf maktabiga aylanoqda.

Eng muhimi, xalq bilan armiya tobora yaqin bo'lib borayotgan harbiy soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag'ishlamogda.

Ayni chog'da barchamiz yaxshi anglaymizki, hozirgi vaqtda, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o'ta murakkab vaziyatda Qurolli

Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

Shu munosabat bilan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida bu borada boshlangan ishlar mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Xususan, Qurolli Kuchlarimizni yangi, modernizatsiyalashgan o't ochish tizimlari va texnika bilan ta'minlash harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini, qo'shinlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda davom ettiriladi.

Tantanali tadbirda qayd etilganidek, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda boshlang'ich harbiy ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy himoya qilish, har



Сиројиддин ВОҲИДОВ олган сурат.

tomonlama qo'llab-quvvatlash bundan buyon ham e'tibor markazida bo'ladi.

Umuman, bugungi kunda barchamiz - qaysi soha yoki tarmoqda, qanday lavozimda ishlamaylik, Vatani himoyachisi bo'lishimiz zarur. Bu talabni davrning o'zi oldimizga qat'iy vazifa qilib qo'yimoqda va xalqimiz ham bizdan aynan shuni kutmoqda.

- Aslida osoyishtalikka o'tgan har bir kun bayram, - deydi podpolkovnik

Zokir Yallakayev. - 14-yanvar - Vatani himoyachilari kuni esa yurtimizda umumxalq bayramiga aylangan. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami ishlar natijasida tizimimiz moddiy-texnika bazasi tubdan yangilanmoqda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'lida qator imtiyozlar berilmoqda. Tabrikni tinglar ekanman, sohaga qaratilayotgan e'tibor natijasida

yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, cheksiz iftixor va sadoqat namunasiga aylanganidan yana bir bor faxr tuydim. Eng muhimi, xalqimizning Vatani himoyachilariga bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda. Bu ishonch bizga Vatanimiz tinchligi va osmonimiz musaffoligini ko'z qorachig'idek asrashimizda kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Tantanali marosimda "Amir Temur marshi" yangrab, konsert dasturini boshlab berdi. Mardlik, jasoratu fidoyilik, qahramonlikni ulug'lovchi mazkur marsh kuch tuzilmalarining Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalari, havaskorlik jamoalar ijrosidagi ona Vatani hamda milliy armiyamiz quch-qudratini ulug'lovchi turkum kuy-qo'shiqlarga ulandi.

"Bulbulcha" bolalar xor va raqs ansambli hamda Respublika ixtisoslashtirilgan xoreografiya maktab-internati o'quvchilarining ijodiy chiqishlari ham kechaga o'ziga foyz bag'ishladi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboeva, Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etdi.

Aziz NORQULOV ("Xalq so'zi").

Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

Senat qo'mitalarida

YUKSAK MARRALAR UCHUN MUSTAHKAM ASOS



Ushbu loyihada "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishi kesimida 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar rejasi, joriy yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati va maqsadli ko'rsatkichlar o'z ifodasini topgan. Unda ko'zda tutilgan yangicha yondashuvlar 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foizga yetkazish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishish uchun mustahkam asos yaratadi.

"Yashil" energetika milliy iqtisodiyotimiz drayveriga aylananayotgani bois bu yo'nalishda kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalar belgilanayotir. Jumladan, aholi

va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag'batlantirish maqsadida shu yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilitatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun "yashil tarif"larni joriy qilish taklif etilmogda.

Davlat dasturi loyihasida mamlakat iqtisodiyotini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun iqtisodiy o'sishni kamida 6 foiz darajasida ta'minlash, bu jarayonda ichki jamg'armalar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini o'rganish rejalashtirilgan.

Shuningdek, tadbirkorlar

Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi majlisida "O'zbekiston - 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

bilan korxonabay ishlarni tashkil qilish va mahalliy mahsulotlarning eksport geografiasini kengaytirish, "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" brendi ostida mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi o'rnini mustahkamlash orqali 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromad o'tachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish ko'zda tutilmogda.

Muhokama yakunida erantgi kunimizni yanada farovon etish, mamlakatimiz taraqqiyotini yuqori pog'onaga ko'tarishga yo'l ochuvchi muhim dastur loyihasini takomillashtirish va qabul qilish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY ISLOHOTLARNING HUQUQIY KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda dastlab quyidagi palata Spikeri N. Ismoilov o'tgan haftada "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan haqida to'xtalib, mamlakatimiz hayoti uchun dolzarbligi va "yashil" rivojlanish borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilab bergan dasturilamal hujjatda 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati va maqsadli ko'rsatkichlar nazarda tutilganini qayd etdi. Ayni paytda siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalar davlat dasturi loyihasini takomillashtirishda taklif va tavsiyalar bilan faol ishtirok etayotganini ta'kidladi. Ushbu masala yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari ham o'z munosabatlarini bildirib o'tishdi.

Majlisda, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirish, aholi manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlik subyektlari faktoring xizmati orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi

Majlisda O'zbekistonda faktoring xizmatlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Unda tadbirkorlik subyektlariga faktoring xizmati ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan faktoring tashkilotlarini tashkil etish, ularni nobank kredit tashkiloti sifatida reestrga kiritish va faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solish belgilanmogda.

Shu bilan birga, pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo'yicha taqiqni buzganlik uchun javobgarlikni bekor qilish, mijozning kontragenti norezident bo'lganda faktoring operatsiyalarini xorijiy valyutada amalga oshirishga ruxsat berish, pul talabnomasidan voz kechish to'g'risidagi xabarnomalarini garov reestriga o'zgartirish to'g'risidagi xabarnomani garov reestriga olish tartibini o'rnatishga oid masalalar deputatlar tomonidan qizg'in muhokama qilindi. Mijozning kontragenti norezident bo'lganda faktoring operatsiyalarini chet el valyutasida amalga oshirish uchun ruxsat berishga, shuningdek, moliya agentlari hamda qarzdorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar xalq vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ushbu qonun loyihasi mamlakatimizda faktoring xizmatlarini amalga oshirishning xalqaro amaliyotga mos qonunchilik bazasi yaratilishini ta'minlaydi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan keng foydalanishga bo'lgan talabini qondirish hamda tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning samarali vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Transport vositalari harakati ustuvorligi yo'lida

"O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamoat transportidagi foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu loyiha yuzasidan ma'ruza qilgan deputat Ulug'bek Qobulovning qayd etishicha, qonunchilikda yo'nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo'ldan boshqa transport vositalarining harakatlanganligi uchun javobgarlikning nazarda tutilmagani jamoat transporti qatnovi muntazamligi va erkin harakatlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmogda.

yo'lovchilarni chiqarish va tushirish uchun javobgarlik nazarda tutilmaydi.

Shuningdek, deputat qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida berilgan takliflar inobatga olingani, ayrim normalarga o'zgartirishlar hamda lingvistik-tahririy tuzatishlar kiritilgani bo'yicha ham ma'lumotlar berib o'tdi.

Ta'kidlab o'tilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi jamoat transportida yo'lovchilarga sifatli va qulay xizmat ko'rsatilishini tashkil etish va jamoat transporti harakati ustuvorligi hamda yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Fuqarolar nomiga ularning xabarisi kreditlarni rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi

Majlisda kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddamodda ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonunga jismoniy shaxslarning ular bilan kredit bitimlarini tuzishga taqiq belgilash va uni olib tashlashga bo'lgan huquqlarini, ularni kredit bitimi tuzish taqiqlangan shaxslar reestriga kiritish tartibi va shartlarini, shuningdek, kredit axborotidan foydalanuvchilarning belgilangan taqiqni buzgan holda kredit bitimi tuzganligi uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmogda.

Deputatlar loyihadagi jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni kredit bitimi tuzish taqiqlangan shaxslar reestriga kiritish tartibi va bu jarayonda jismoniy shaxslarning huquqlari va kredit byurolarining majburiyatlariga doir normalar fuqarolarning huquqlarini ta'minlash hamda qonun normalarining amaliyotda bir xil qo'llanilishi maqsadida aniqlashtiruvchi tuzatishlar kiritilganini qo'llab-quvvatlashdi.

Qonun loyihasiga mas'ul qo'mita a'zosi Dilmurod Ismoilov ushbu hujjatga deputatlar tashabbusi bilan yana bir

muhim o'zgartirish kiritilganini qayd etdi. Ya'ni qonun tashabbuskorlari jismoniy shaxslar tomonidan o'zlarining nomiga kredit olishni rasmiylashtirishga taqiqni olib tashlash bilan bog'liq jarayon pullik, deb kiritgani va bu fraksiyalar a'zolari takliflari, deputatlar tashabbusi asosida ushbu amaliyot bepul amalga oshirilishi haqidagi normaga o'zgartirilgani aytib o'tildi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

Bir huquqbuzarlik uchun bir marta javobgarlik belgilanishi kerak

Majlisda deputatlar tadbirkorlik subyektlari aynan bir huquqbuzarlik uchun bir necha marotaba javobgarlikka tortilishining oldini olishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Soliq kodekslariga shaxsning sodir etgan aynan bir huquqbuzarlik uchun bir marotaba javobgarlikka tortilishini ta'minlash va soliq ma'muriyatidagi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Munozaralar davomida soliq ma'muriyatidagi yanada takomillashtirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun belgilangan javobgarlik choralarini, jumladan, moliyaviy sanksiyalar va ma'muriy jarimalar qo'llashning tadbirkorlik subyektlari uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarmasligiga oid normalarga alohida e'tibor qaratildi. Loyihadagi soliq imtiyozlarini taqdim qilishga oid masalalar deputatlar tomonidan ma'qullandi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberalashtirish, qo'tiqcha ovzargarliklarning oldini olish, tadbirkorlik subyektlari oldidagi majburiyatlarini kamaytirish, ularning aylanma mablag'larini biznesni rivojlantirishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

JAMOATCHILIK FIKRI - QONUN IJODKORLIGI NEGIZI

"O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasi 33 ta band, 5 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan iborat.

Unda har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhit muhofazasi, qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvin tashkil qilish, xavfsizlik va tinchliksevar davlat tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish belgilangan.

Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasida bo'lib o'tgan muhokama jarayonida davlat dasturi loyihasidagi bir qator maqsadlarga erishish bo'yicha tegishli taklif va fikr-mulohazalar bildirildi. Yangi tahrirdagi Yer kodeksini ishlab chiqish, tog' hamda tog'oldi hududlardagi o'rmonlarni asrash va ularning maydonini yanada kengaytirish shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, parlament nazorati

natijalarining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqish, tadbirkorlar o'rtasida yuzaga kelayotgan (iqtisodiy) nizolarga o'z vaqtida va adolatli yechim topilishini ta'minlash maqsadida nizolarni sudgacha hal qilishning muqobil usuli bo'lgan mediatsiya institutini yanada takomillashtirish va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish masalalari ham qizg'in muhokama etildi.

Bunda nizolashayotgan taraflar tomonidan tuzilgan mediativ kelishuvni majburiy ijro qilish mexanizmiga o'tish hamda professional mediatorlar uchun o'li ma'lumotga ega bo'lish talabini qo'yish zarurligi taklif etildi.

Davlat dasturi loyihasi muhokamasida jamoatchilik, xususan, soha mutaxassislarining faol qatnashishi juda muhim ekani qayd etildi.

"Xalq so'zi".

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-142. 12 830 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 20.50 Topshirildi - 23.55 1 2 3 4 5 6